

ISLOM INQILOBIDAN SO'NG ERON QUROLLI KUCHLARINING TRANSFORMATSIYASI

Xodjimuratova Dilshoda

TDSHU katta o'qituvchisi, t.f.b.f.d. (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada Eron Islom Respublikasi qurolli kuchlarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'siri tahlil qilinadi. Eron qurolli kuchlari muntazam armiya va Islom inqilobi posbonlari korpusidan iborat ekanligi hamda Eron-Iraq urushi mamlakat harbiy tizimining modernizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgani ta'kidlanadi. Shuningdek, "xumaynizm" g'oyasi, harbiy islohotlar, armiya va diniy elita o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinib, Eronning mintaqaviy harbiy strategiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Eron qurolli kuchlari, Islom inqilobi posbonlari korpusi, Eron-Iraq urushi, harbiy doktrina.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВООРУЖЁННЫХ СИЛ ИРАНА ПО ЗАВЕРШЕНИЮ ИСЛАМСКОЙ РЕВОЛЮЦИИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется формирование и развитие вооружённых сил Исламской Республики Иран, а также их влияние на внутреннюю и внешнюю политику страны. Подчёркивается, что вооружённые силы Ирана состоят из регулярной армии и Корпуса стражей Исламской революции, а также значительное влияние ирано-иракской войны на модернизацию военной системы страны. Кроме того, рассматриваются идея «хумейнизма», военные реформы, взаимоотношения между армией и религиозной элитой, а также освещается региональная военная стратегия Ирана.

Ключевые слова: Вооружённые силы Ирана, Корпус стражей Исламской революции, Ирано-иракская война, военная доктрина.

TRANSFORMATION OF IRAN'S ARMED FORCES ON COMPLETION OF THE ISLAMIC REVOLUTION

ABSTRACT

The article analyzes the formation and development of the armed forces of the Islamic Republic of Iran, as well as their influence on the country's internal and foreign policy. It shows that Iran's armed forces consist of the regular army and the Islamic Revolutionary Guard Corps, and significant impact of the Iran-Iraq War on

modernization of the country's military system. In addition, the article examines the idea of "Khomeinism," military reforms, the relationship between the army and the religious elite, and highlights Iran's regional military strategy.

Keywords: Iranian armed forces, Islamic Revolutionary Guard Corps, Iran-Iraq war, military doctrine.

KIRISH

Eron Islom Respublikasi Qurolli kuchlari mamlakatning ichki va tashqi siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat Eronning suveriniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishni ta'minlaydi, balki xavfsizlik, mudofaa va tashqi siyosat sohasida muhim qarorlarni qabul qilish jarayoniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Eron harbiylari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda muhim o'rinni tutib, ichki muammolar va turli xil nizolarni hal etishda ishtirok etadi.

Eron qurolli kuchlari muntazam armiya va harbiy elita hisoblangan Islom inqilobi posbonlari korpusidan iborat. 1979-yili Eronda davlat boshqaruvi ruhoniyat vakillariga o'tganidan so'ng Oliy rahbariyat yangi harbiy siyosat doirasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, Eron armiyasidan AQSH harbiy maslahatchilari va mutaxassislari chiqarib yuborildi, harbiy obyektlarni qurish ishlari to'xtatildi hamda qurol-yarog' va harbiy texnika sotib olish bo'yicha imzolangan shartnomalar bekor qilindi, harbiy byudjet yarmiga qisqartirildi, mamlakat hududidagi AQSH harbiy bazalari va razvedka markazlari faoliyati jamoatchilikka ochiqlandi.

Erondagi inqilobiy voqealar mamlakat qurolli kuchlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Eron Islom Respublikasining diniy rahbariyati sobiq shoh armiyasining tashkiliy tuzilmasini saqlab qolish, qo'shinchilarni o'zlariga bo'ysundirish va oliy harbiy rahbariyatni (generalitetni) siyosiy hayotda ishtirok etishdan chetlashtirish qarorini qabul qildi. Buning uchun yuqori qo'mondonlik tarkibi deyarli to'liq o'zgartirildi va quyi bo'g'indan ommaviy tozalash ishlari o'tkazildi.

Natijada yuzga yaqin shoh armiyasi generallari va yuqori martaba ofitserlari o'limga mahkum qilindi. Bunda 2000 dan ziyod oliy va yuqori martaba zabitlari qatag'on qilindi. Teokratik hokimiyat armiyani bir tomondan o'z nazaratida saqlash, ikkinchi tomondan uning jangovarligini saqlab qolishga urinishlariga qaramay, Eron qurolli kuchlari salohiyatiga qattiq zarba berdi. Buning oqibatida Eron armiyasi deyarli to'liq shaklda jangovarligini yo'qotdi, boshqaruv vertikali zaiflashdi va ma'naviy-g'oyaviy tayyorgarligi pasaydi. 1980-yil sentyabr Eron-Iraq urush boshsanishi arafasida Eron armiyasining ofitserlar tarkibi bilan ta'minlanganlik darajasi shtat jadvaliga nisbatan 45–55%, oddiy askar va serjantlar tarkibi esa 60–

70% ni tashkil etardi. Qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlanganlik va ularning jangovarlik holati taxminan 45% edi¹.

Shu bilan birga Eron-Iraq urushi islom inqilobidan keyingi davr mamlakatda harbiy qurilish dasturlarini faollashtirish uchun kuchli turtki bo‘ldi. Zero, muntazam armiyani zamonaviy harbiy texnika va malakali milliy kadrlar bilan yetarli darajada ta’minlamaslik Eronni mutlaq mag‘lubiyatga olib kelishini nafaqat harbiy elita, balki diniy-siyosiy rahbariyat ham yaxshi anglardi. Biroq teokratik Eronning yangi diniy-siyosiy elitasi sobiq shoh Muhammadrizo Pahlaviya qasamyod qilgan generalitet va uning tasarrufidagi muntazam armiyaga ishonch bildirishdan jiddiy hadiksirardi. Ular armiyaning ahamiyatini turli yo‘llar bilan pasaytirishga harakat qilib, “xumaynizm”² g‘oyalariga sodiq bo‘lgan partiyaviy qo‘riqlash otryadlari kabi muqobil qurolli tuzilmalarni yaratishga urg‘u berdi.

Bu vazifalar 1979-1989-yillari Eron Oliy rahbari bo‘lgan Ruhulloh Xumayniy tarafdarlari va inqilobi qo‘mitaning harbiylashtirilgan otryadlari asosida tashkil etilgan Islom inqilobi posbonlari korpusi zimmasiga yuklatilgan. Mazkur korpus Eron davlat boshqaruvi tizimidagi tarkibiy bo‘linmalardan biri bo‘lib, mamlakatda va xorijda Eron milliy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surishga qaratilgan turli xil vazifalarni bajaradi. Ko‘pincha ekspertlar uning mamlakatdagi roli va funksiyalarini zikr etganda «davlat ichidagi davlat»³ deb tavsiflaydilar. Ya’ni Islom inqilobi posbonlari korpusi mazkur vazifalarni bajarishga mas’ulligi va boshqa davlat tuzilmalarining ayrim funksiyalarini takrorlashi bois keng vakolatlarga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islom inqilobi posbonlari korpusi va unga tobe kuchlarning faoliyati mamlakat aholisining katta qismini Eron Oliy rahbari yetakchiligidagi diniy faoliyatga jalb qilish mexanizmiga aylandi. Korpus otryadlariga R.Xumayniy va islom inqilobi g‘oyalariga sodiq 10 mingga yaqin yoshlardan iborat ko‘ngillilar qabul qilingan. Avvalida Islom inqilobi posbonlari korpusi armiyadan mustaqil boshqaruvi tizimiga ega bo‘lgan harbiylashtirilgan tuzilma shaklida edi. Eron-Iraq urushi boshlanganidan keyin diniy-siyosiy elita rahbarlari Korpusning katta siyosiy, harbiy va jazolovchi-repressiv imkoniyatlarini anglab yetdilar va uni Eron qurolli tuzilmalarining asosiy kuchiga aylantirish yo‘llarini ishlab chiqdilar. Natijada 1979-1989-yillar Islom inqilobi posbonlari korpusi kuchli muntazam harbiy tuzilmaga aylanib, milliy armiya

¹ Сажин В.И., Бондарь Ю.М. Военная мощь Исламской Республики Иран. М.: Издательство Московского университета, 2014. — С. 178.

² 1979-1989 - yillar Eron oliv rahbari Ruhulloh Musaviy Xumayniy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga nisbatan qo‘llaniladi.

³ Сажин В.И. Корпус Стражей Исламской Революции Ирана – государство в государстве. // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. 2017;10(3). – С. 83-109.

bilan bir qatorda mamlakat qurolli kuchlarining ajralmas qismiga aylandi. Islohotlar natijasida korpusning shaxsiy tarkibi 50 barobarga oshirildi va 1990-yillar boshiga kelib yarim millionga yetdi. 1982-1988-yillar Korpusning jangovar tarkibi uch martaga ko‘paydi. Shuningdek, Islom inqilobi posbonlari korpusi tarkibida Quruqlik qo‘shinlari, Harbiy havo kuchlari va Harbiy dengiz floti tashkil etildi. Keyinchalik Korpus tasarrufiga quollangan guruhlar va diversiya-razvedka xizmatlari o‘tkazildi⁴.

1982-yil mamlakat urush holatida bo‘lgan sharoitda Eron Oliy rahbariyati mamlakat qurolli kuchlarini modernizatsiya qilishga, xususan, armiyada harbiy islohotlarni amalga oshirib, harbiy xizmatchilarni shia mazhabi ta’limotiga xos diniy g‘oyalar (shu jumladan, “xumaynizm”) asosida ma’naviy-ruhiy tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratdi. Mazkur sa’y-harakatlar natijasida armiyaning jangovar salohiyati sezilarli oshirildi, ayniqsa, Quruqlik qo‘shinlari shaxsiy tarkibining soni ko‘paytirildi. 1987-yilga kelib, armiyaning shaxsiy tarkibi 400 ming nafarga yetkazildi⁵. Eron-Iraq urushi davrida armiyaning tashkiliy tuzilmasi yaxshilandi, diviziylar va alohida brigadalar soni ko‘paytirildi va ushbu choralar qo‘shinlarni boshqarish samaradorligini oshirdi. Milliy armiya, Islom inqilobi posbonlari korpusi vakillaridan iborat birlashgan operativ shtab janglarda yaxshi natijalar ko‘rsatdi. Qurolli kuchlarning barcha bo‘g‘inlarida ma’muriy bo‘g‘inlar, ya’ni harbiylarni ma’naviy-ruhiy tayyorgarligiga mas‘ul komissarlar faoliyati joriy etildi.

Eron-Iraq urushi mobaynida mamlakatda amalga oshirilgan harbiy islohotlarda ikki tendensiya yuzaga keldi. Bular harbiylarda diniy identlikni shakllantirish va voqeа-hodisalarni pragmatik baholash. Birinchi tendensiya “muqaddas urush — jixod” nazariyasiga asoslanadi va bunda ma’naviy hamda jangovar rujni ko‘tarishning muhim omili sifatida diniy fanatizmga tayaniladi. Ikkinci tendensiya armiyaning kadrlar tarkibi va harbiy-siyosiy hamda diniy isteblishmentning ayrim vakillari joriy shart-sharoitlarda zamonaviy harbiy ilmlar va urush amaliyoti prinsiplariga muvofiq bo‘lish zaruriyatini anglab yetgani natijasida vujudga keldi. Buning natijasida harbiy sohaga taalluqli barcha masalalar bo‘yicha harbiylar va ruhoniyat o‘rtasida qarama-qarshilikka zamin yaratildi.

1980-1990-yillar Eron qurolli kuchlarining rivojlanish tendensiyasi Oliy rahbar R.Xumayniy tomonidan belgilangan «yangi shia panislomizmi» g‘oyasidan kelib chiqib amalga oshirildi:

- armiyani modernizatsiya qilish va harbiylar ma’naviyatini islam dini qadriyatlari asosida mustahkamlash;

⁴ Бондарь Ю.М. Войска специального назначения вооруженных сил Ирана / Институт Ближнего Востока, 2012 // [Электронный ресурс]. URL: <http://www.iimes.ru/?p=17191> (Дата обращения: 15.01.2025).

⁵ Сажин В.И., Бондарь Ю.М. Военная мощь Исламской Республики Иран. М.: Издательство Московского университета, 2014. — С. 179.

- Islom inqilobi posbonlari korpusi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- «Basij» qarshilik kuchlarini tashkil etish.

Oliy rahbar R.Xumayniyning mazkur diniy g‘oyalariga asoslangan harbiy konsepsiyasiga binoan amalga oshirilgan harbiy islohotlar Eron-Iraq urushi sharoitida 1980-1990-yillar mamlakat muntazam armiyasi jiddiy transformatsiya bo‘ldi. Xususan, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi 900 mingni, «Basij» uch millionni hamda mobilizatsiya qilinishi mumkin bo‘lgan zaxiradagilar 5 milliondan ziyodni tashkil etib, bir vaqtning o‘zida harbiy safarbarlikka chaqiriladiganlar soni 10 millionga yetkazildi. Buning natijasida Oliy rahbar R.Xumayniy tomonidan Eron-Iraq urushi sharoitida mamlakat qurolli kuchlarining mobilizatsion salohiyatini 20 millionga yetkazishga qaratilgan harbiy-strategik konsepsiya tasdiqlandi⁶.

Hozirda Eron mintaqaviy kuch sifatida mamlakat tashqi siyosatini ilgari surish doirasida muhim harbiy vazifalarni hal qilmoqda. Eron rahbariyati urush hususiyatlari hamda qurolli kuchlarni qo‘llash tamoyillari, shuningdek, harbiy sohani rivojlanirish, do‘sst va dushmanlarni belgilashda o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqmoqda. Bu qarashlar harbiy soha bo‘yicha tub muammolarni o‘z ichiga olgan holda Eronning harbiy doktrinasini shakllantirdi. Uning asoslari R.Xumayniy va uning hamkorlari tomonidan 1979-yildagi islomi inqilobiga qadar shakllantirilgan edi. Shialar oliy rahbariyati hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng, «Xumayniy ta‘limoti» asosida «Eron milliy xavfsizlik doktrinasi» shakllantirildi va keyinchalik parlament tomonidan qabul qilindi⁷.

Yuqorida zikr etilganidek, Eronning harbiy doktrinasi Oliy rahbar R.Xumayniy tomonidan belgilangan «yangi shia panislomizmi» g‘oyasidan kelib chiquvchi milliy manfaatlari bilan belgilanishi bois uning asosiy maqsadi Eron yetakchiligidan musulmon dunyosini o‘zaro birlashtirish deb ta’kidlangan. Shu bois mamlakat harbiy doktrinasining asosiy parametrlari mazkur strategiyani amalga oshirishga qaratilgan.

Eronning harbiy rivojlanish siyosatining yo‘nalishlarini belgilaydigan mamlakat harbiy-siyosiy doktrinasi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishni ham o‘z ichiga olgan. Bunday siyosatning umumiyligi yo‘nalishi kuch ishlatish orqali siyosiy va harbiy maqsadlarga erishishga qaratilgan o‘ziga xos dastak yaratishni ko‘zlagan. R.Xumayniyning fikricha, yaxshi tayyorgarlikdan o‘tgan, urush olib

⁶ Хмелинец С. М. Основные направления военного строительства Вооруженных сил Ирана / Институт Ближнего Востока, 2010 // [Электронный ресурс]: URL: <http://www.iimes.rn/?p=10386> (Дата обращения: 10.01.2025).

⁷ نورالدین جعفری هزارانی. دکترین امنیت ملی ایران. [Elektron manba]: URL:<https://civilica.com/note/1830/> (murojaat sanasi 09.01.2025).

borish uchun zamonaviy harbiy texnikalar bilan jihozlangan Eron qurolli kuchlari mazkur dastak bo‘lib xizmat qilishi kerak⁸.

Eron harbiy rahbariyati so‘nggi yillarda harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Xususan, batalon-brigada darajasidagi mashg‘ulotlar soni ortgan, qurolli kuchlarning turli qismlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik kuchaytirilgan. Qo‘mondonlik “Basij” kuchlari va huquq-tartibot qo‘riqlash kuchlari bilan hamkorlikni ham yo‘lga qo‘ygan. Jangovar tayyorgarlikning ustuvor yo‘nalishi sifatida harbiy rahbariyat tomonidan shaxsiy tarkibning partizan urushi sharoitida, ayniqsa, yuqori texnologiyali quollar bilan jihozlangan dushman hujumi sharoitida mobil harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat deb belgilangan⁹.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, XX asr oxiri- XXI asr boshlarida Eron qurolli kuchlarining rivojlanishi va transformatsiyasi mamlakat xavfsizlik siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Eron Islom Respublikasi qurolli kuchlari mamlakatning ichki va tashqi siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Islom inqilobi natijasida tashkil etilgan Islom inqilobi posbonlari korpusi mamlakatdagi asosiy harbiy-siyosiy institatlardan biriga aylandi. Eron-Iraq urushi mamlakat harbiy tizimining qayta tuzilishi va modernizatsiyasiga kuchli turtki berdi. Mazkur modernizatsiya jarayonlari harbiy texnika va kadrlar salohiyatini yaxshilashga qaratilgandi.

Eronda yangi tashkil etilgan teokratik hokimiyat monarxiya davridagi mamlakat harbiy salohiyatini saqlab qolish va o‘z nazoratini mustahkamlash uchun islohotlarni amalga oshirdi. Bu esa Eron harbiy doktrinasi “xumaynizm” g‘oyalari va shia panislomizmi asosida shakllanishiga olib keldi. Bunday sharoitda Qurolli kuchlarning rivojlanishi Eronning mintaqaviy xavfsizlik siyosatidagi ta’sirini oshirdi. Natijada Eron mintaqaviy kuch sifatida o‘z harbiy doktrinasini geosiyosiy maqsadlariga moslashtirib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Сажин В.И., Бондарь Ю.М. Военная мощь Исламской Республики Иран. М.: Издательство Московского университета, 2014. — С. 179.

⁸ Ислам в современной политике стран Востока. (конец 70-х — начало 80-х годов XX в.). М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986. — С.149.

⁹ Кудрявцев А. Политические процессы в современном развитии Ирана: тенденции, проблемы, перспективы / Дис. ... кан. полит. наук / Астраханский государственный университет. - Астрахань. 2010. – С 110.

2. Сажин В.И. Корпус Стражей Исламской Революции Ирана – государство в государстве. // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. 2017;10(3). – С. 83-109.
3. Кудрявцев А. Политические процессы в современном развитии Ирана: тенденции, проблемы, перспективы / Дис. ... кан. полит. наук / Астраханский государственный университет. - Астрахань. 2010. – С 110.
4. Ислам в современной политике стран Востока. (конец 70-х — начало 80-х годов XX в.). М., Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986. – С.149.
5. Хмелинец С. М. Основные направления военного строительства Вооруженных сил Ирана / Институт Ближнего Востока, 2010 // [Электронный ресурс]: URL: <http://www.iimes.rn/?p=10386> (Дата обращения: 10.01.2025).
6. Бондарь Ю.М. Войска специального назначения вооруженных сил Ирана / Институт Ближнего Востока, 2012 // [Электронный ресурс]. URL: <http://www.iimes.ru/?p=17191> (Дата обращения: 15.01.2025).

7. نورالدین جعفری هزارانی. دکترین امنیت ملی ایران.

[Elektron manba]: URL:<https://civilica.com/note/1830/> (murojaat sanasi 09.01.2025).